

DARSLIKLAR YARATISHNING PEDAGOGIK TAHLILI

(ABU NASR FOROBIY IJODI MISOLIDA)

O'rinov Ozod Sherzodovich

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti

Samarqand filiali 2-kurs magistranti

[Tel:\(97\) 395-28- 58](tel:+998973952858)

Email:ozodurinov35@gmail.com

Ilmiy rahbar: t.f.f.d (PhD) **Mattiyev O'.B.**

Annotatsiya

Ushbu maqolada musulmon uyg'onish davri pedagogik qarashlari Abu nasr Forobiy ijodi misolida tahlil qilingan. Tarixiy haqiqat shuki, Movarounnahr zamini o'rta asr musulmon sharqida ma'rifat va madaniyat maskani sifatida dong taratgan o'lka hisoblangan. Yurtimizdan yetishib chiqqan al-Xorazmiy, al-Farg'oniy, al-Forobiy, ibn Sino, Beruniy, Zamaxshariy va boshqa buyuk alloma, qomusiy olimlarning ilmiy merosi haqli ravishda umumbashariy mulkka aylangan. Sobiq sovet davrida ushbu olimlarning ilmiy merosiga bir tomonlama munosabat shakllangan bo'lsa, mustaqillik yillariga kelib ushbu buyuk zotlar faoliyati va ilmiy merosi har tomonlama chuqur o'rganilishi boshlandi.

Kalit so'zlar: Uyg'onish davri, Ma'naviyat, Qur'on, Hadis, axloqiy qarashlar, Xalifalik, pedagogik jarayonlar.

Kirish: O'rta Osiyoning qadimiy tarixi va madaniyati, bunda yashab o'tgan Sharq mutafakkirlari va faylasuflarining jahon madaniyati taraqqiyotiga qo'shgan g'oyat katta hissalari ham bu yerda yashayotgan odamlar turmushining barcha

tomonlariga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatgan. O'tmishdagi allomalarning bebaho me'rosi qanchadan – qancha avlodning ma'naviy – ruhiy ongini va turmush tarzini shakllantirgan va shakllantirmoqda. Bu ta'sir ko'proq ilmiy-falsafiy talqin bilan ifodalangan holda Abu Nasr al-Forobiyning insonparvarlikka oid asarlarida ham o'z aksini topgan. Olim axloqiy xususiyatlar insonda faqat an'analar orqaligina emas, shuningdek, bilim va tarbiya orqali vujudga kelishini ta'kidlaydi. Uning fikricha, ta'lim-tarbiya insonning tabiat hodisalaridan o'z maqsadlari uchun foydalana bilishi va bu yo'lda boshqa kishilar bilan to'g'ri munosabatda bo'lishi, jamiyatning haqiqiy a'zosi bo'lib yetishuvi, uning ichki tartib-qoidalarini to'g'ri o'rganib jamiyat talablariga javob bera oladigan bo'lib yetishishi uchun zarurdir.

Asosiy qism: Mutafakkir insonning ma'naviy hayotida, asosan, uning ikki tomoniga: aqli-ongiga va axloqiga (xulq-atvoriga) e'tibor beradi. Shuning uchun ta'lim-tarbiya, uning fikricha, insonni aqliy tomondan ham, axloqiy tomondan ham yetuk mukammal kishi qilib yetishtirishga qaratilmog'i lozim, demak, ta'lim-tarbiyaning birdan bir vazifasi-jamiyat talablariga to'la-to'kis javob bera odadigan va uni bir butunlikda, tinchlikda, farovonlikda saqlab turish uchun xizmat qiladigan ideal inson tayyorlashdir. Al-Forobiy ta'limotiga ko'ra, inson yakka o'zi kamolotga, baxt-saodatga erisha olmaydi, chunki u boshqalarning yordamiga, tayanchiga muhtojdir. Shuningdek, ta'lim-tarbiya biror maqsadga muvofiq olib borilishi lozimdir.

Al-Forobiy ta'lim - tarbiyaga birinchi marta ta'rif bergan olim sanaladi. Ta'lim - degan so'z insonga o'qitish, tushuntirish asosida nazariy bilim berish; tarbiya - nazariy fazilatni, zarur bo'lgan xulq normalarini va amaliy malakalarni o'rgatish ekanini olim alohida ta'kidlab o'tadi. Al-Forobiyning fikricha, tarbiyani boshlashdan avval tarbiyalanuvchilarning shaxsiy xislatlarini o'rganish lozim. Zero, insonning xohishi, ixtiyori, irodasi, ijobiy va salbiy jihatlarini, xislatlarini, nimaga qobiliyati borligini aniqlamay turib, kutilgan natijaga erishib bo'lmaydi. Alloma o'zining «Baxt-saodatga erishuv to'g'risida» asarida bilimlarni o'rganish tartibi haqida fikr bayon etgan. Uning ta'kidlashicha, avval

bilish zarur bo'lgan ilm o'rganiladi, bu olam asoslari haqidagi ilmdir. Uni o'rgangach, tabiiy ilmlarni, tabiiy jismlarni o'rganish lozim. Undan so'ng, umuman, jonli tabiat o'simliklar va hayvonlar haqidagi ilm o'rganilishi darkor, - deydi [1:71].

Al-Forobiy ta'limotida inson ta'lim yordamida barcha fanlarni puxta o'zlashtirish bilan ma'naviy-axloqiy fazilatlarga, odob me'yorlari va kasb-hunarga oid malakalarga ega bo'ladi. U «ta'lim-tarbiyada rag'batlantirish, odatlantirish, majbur etish usullarini ilgari surdi» [5:81]. Bu usullar esa, o'z navbatida, al-Forobiyning «fozil insonlar jamiyati»da axloqan pok, barkamol avlodni tarbiyasi uchun xizmat qilishi kerak edi. Umuman olganda, al-Forobiyning fozil jamiyati, komil inson baxt-saodati, o'zaro yordam, dono boshliq, tenglik haqidagi fikrlari o'z davri uchun xayoliydir. Lekin insonni ma'naviy ozod etishga, uning imkoniyatlarini ochishga, insonparvarlik yo'nalishini asoslashga qaratilgan bu ta'limot ilg'or ijtimoiy tafakkur taraqqiyotiga buyuk hissa bo'lib qo'shildi va umumbashariy intilishlarni ifodaladi. «Uning ijtimoiy g'oyalari keyin davr mutafakkirlari: Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Ibn Rushd, Baxmanyor, Nizomiy, Sa'diy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Bedil, Iqbol, Ahmad Donish va boshqalar ijodida rivojlantirildi»[4:17].

Darhaqiqat, IX-X asrdan keyingi davrlarda yashab o'tgan allomalar ham inson axloqi, yoshlar tarbiyasi masalasiga doir ko'plab risolalar yozganlar. Bu xayrli ishga tasavvuf olamining gulshanlari Najmiddin Kubro, Farididdin Attor, Bahouddin Naqshbandiy, Ahmad Yassaviy, Jaloliddin Rumiy, Abdurahmon Jomiy, Aziziddin Nasafiy, Alisher Navoiy kabilar katta hissa qo'shdilar. Ular ijodida al-Buxoriy, al-Forobiy, Ibn Sino, Abu Hamid G'azzoliy qarashlari yangi pog'onada rivojlantirildi. Masalan, Aziziddin Nasafiy o'zining «Zubdatul haqoyiq» (Haqiqatlar qaymog'i) risolasida insonning kamolot sari o'sishi jarayonlarini tahlil qilar ekan, bu ta'limotni zamon va davr nuqtai nazaridan kelib chiqib, o'z fikrlari bilan boyitdi. Nasafiy shu risolasida: «+amida axloqiy xislatlar-la bezanmagan, o'zini tanimagan odamlar ko'p, ammo ular hali komil emas, deydi,- inson hayvon turlaridan biridir, aynan hayvon ruhi

tarbiya topib, ta'lim va tahsil ko'rib, bilish, takrorlash, taqvo va zikr tufayli darajalar bo'ylab rivojlanadi va har bir darajada - martabada yangi ismga molik bo'ladi»[2:148]. Uning axloqiy go'zallik haqidagi fikrlarida axloqiy yetuklikka oid hadislarining talqini aks etib tursa, ta'lim-tarbiya, bilim to'g'risidagi qarashlari al-Forobiy g'oyalari bilan hamohangdir.

Pedagog olim S.Nishonova o'zining ko'p yillik tadqiqoti natijalariga asoslanib, «Sharq Uyg'onish davri pedagogik ta'limotida, axloqiy asarlarda komil inson tarbiyasi asosiy va muhim masalalardan sanaladi» [5:202], -deb to'g'ri ta'kidlab o'tgan. Olim N.Komilovning ta'kidlashicha, o'rta asrlardagi «komil inson haqidagi g'oyalar katta ijtimoiy-axloqiy ahamiyatga ega bo'ldi, insonni sharafligi, ezgulik va Buyuk Xayr ruhida tarbiyalash, mehru muhabbat, vafo sadoqatni kuchaytirishga qildi. Har zamon, har lahzada insonlarga ularning insonligini eslatib, yozuv, qabih ishlar, nojo'ya qiliqlardan saqlanishga ko'maklashdi, iymon va vijdon binosining poydori bo'lishini ta'minladi» [3:153].

«Forobiy Somoniylar davlatida ham bo'lgan, -deb yozadi akademik M.M. Xayrullayev,- u Somoniylar hukmdori Mansur ibn Nuhga «At-Ta'lim as-Soniy» («Ikkinchi ta'lim») risolasini yozib bergan. Shundan keyin «Muallim as-Soniy», ya'ni «Ikkinchi muallim» nomiga sazovor bo'lgan»[2:160].Olimlarning fikricha, al-Forobiy Bag'dodda 929-932 yillar oralig'idagi davrda yashagan. 941 yilda Damashqqa ko'chib kelgan va qolgan umrini shu yerda o'tkazgan. U «Fozil shahar aholisining qarashlari» asarini Damashqda yozib tugatgan. Al-Forobiy Suriyaning Halab shahriga ham tez-tez borib turgan va u yerdagi olimlar bilan muloqotda bo'lgan. Chunki shahar hukmdori Sayfuddavla ilm va fan ahlining homiysi bo'lganligi sababli, Halabda juda ko'p ilm-fan fidoyilari qo'nim topgan edilar.Abu Nasr al-Forobiy hijriy 339 yil rajab oyida (milodiy 950-951 yillarda dekabr-yanvar oylari oralig'ida) vafot etdi va Damashqdagi «Bob as-Sag'ir» qabristonida dafn qilindi.Ko'pchilik o'rta asr olimlari al-Forobiyni e'tiqodli musulmon ekani to'g'risida yozadilar, shuningdek, uning O'rta Osiyodan

chiqib ketishini musulmon dunyosining muqaddas shaharlari Makka va Madinaga safar qilish niyatida bo'lganligi bilan tushuntiradilar.

Al-Forobiy yuksak insoniy fazilatlar sohibi bo'lib, ozga qanoat qilar, boylikka hirs qo'ymagan, kamtar, muloyim, doimo boshqalar uchun yordamga shay inson bo'lgani va Xalifotning boy madaniy markazlarida yashaganiga qaramay, o'z yurti muhabbati bilan yashagani haqida ko'p malumotlar mavjuddir. Al-Forobiyning ilmiy merosi juda boydir. Uning asarlari soni haqida hali ham aniq bir raqam yo'q. «Ba'zilar 80 ta desa, boshqalari 130 ta deb ko'rsatadi, -deb yozadi akademik M.M.Xayrullayev, turk olimi Ahmad Otash bu ko'rsatkichni 160 ta deb ta'kidlaydi va Istanbul kutubxonalaridan Forobiyga tegishli shuncha risolalar ro'yxatini tuzdi» [2:160]. Xulosa qilib aytganda, Chor Rossiyasi amaldorlari ta'rifi bilan aytganda, «biror bir millatni qirish uchun ularni jismonan mahv etish kerak emas, balki ularning urf -odat va an'analarini yo'q qilish kifoya» aqidasi amalda joriy etilgan davrda milatimizning asriy madaniyati keskin zarbaga uchradi. Ko'p asrlar davomida xalqimizning og'zaki ijodi, urf – odat va an'analari, islom ta'limotidagi umuminsoniy qadriyatlar hamda buyuk mutafakkir ajdodlarimizning ilmiy qarashlari asosida shakllangan axloqiy tarbiyaga oid ta'limotlar dastlab bu o'lkaning chor Rossiyasi tomonidan bosib olinishi, sungra esa oktyabr inqilobidan keyin ateizm siyosatini joriy etilishi bilan o'z ahamiyatini yo'qota boshladi. Abu Nasr Forobiy yunon va boshqa millat vakillari bo'lgan olimlarning ilmiy qarashlarini izohlabgina qolmay, ularni yangi g'oyalar asosida boyitib ham bordi. Agar Yevropa davlatlari ilmiy taraqqiyoti bilan taqqoslaydigan bo'lsak, mazkur davrda ilm fan, tarbiyashunoslik, pedagogik tafakkur tushunchalari yevropaliklar tomonidan e'tiborga ham olinmagan bir paytda, O'rta Osiyo mintaqasida ijtimoiy fan sohalarining poydevori yaratildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Аль – Фараби. Социально – этические трактат. – Алма – ата: Наука, 1973. – С. 111, 174, 229.

2. . Хайрулаев М.М. Уйғониш даври ва Шарқ мутафаккирлари. – Т.: Фан, 1971. – 43 б.
3. Комилов Нажмиддин. Тасаввуф. 1 – т. – Т.: Ёзувчи, 1996. – 153 б.
4. Жумабоев Й. Ўрта Осиё этикаси тарихи очерклари. – Т.: Ўзбекистон, 1980. – 38 б.
5. Нишонова Санобар. Шарқ уйғониш даври педагогик фикр тараққиётида баркамол инсон тарбияси. // Педагогика фанлари доктори илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация. – Тошкент, 1998. – 202 б.